

Axborot-resurs markazi fondiga olingan "AGRO ILM" agrar - iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnalining yangi 2018 yil (maxsus) sonini foydalanuvchilarga taqdim etamiz



O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Ilm bo'lmagan joyda, izlanish bo'lmagan joyda hech qanday sohada rivojlanish, yuksalish va umuman ushbu sohaning kelajagi bo'lmaydi. Ilmning rivojlanishida fundamental tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi. Faqat ular orqaligina yangi bilimlarni o'zlashtirish va nazariyalarni shakllantirish, kelajakdagi amaliy tadqiqotlar va innovatsion rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratish mumkin bo'ladi".

Muhtaram Prezidentimizning ushbu so'zlari TIQXMMI professor-o'qituvchilari tarkibining ilmiy tadqiqotlarni tayyorlash va ularni olib borishlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari bajarilgan ishlarining o'ziga xos hisoboti desak, mubolag'a bo'lmaydi.

TIQXMMI Axborot-resurs markazi fondiga "AGRO ILM" agrar - iqtisodiy, ilmiy - amaliy jurnalining yangi (maxsus) soni olindi. Jurnalda chop etilgan TIQXMMI professor - o'qituvchilarining maqolalari respublikamiz agrar - iqtisodiy siyosatining dolzarb masalalariga bag'ishlangandir. Maqolalar o'z ichiga muammoga kirish, vazifaning mohiyatini, tavsiya etilayotgan yechimlar va olingan natijalar, shu jumladan xulosalarni oladi.

Jurnalning asosiy ruknlari:

1. Agrar sohaga oid dolzarb mavzulardagi maqolalar;
2. Agrosanoat majmuiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar, jumladan ilg'or fermerlar, chorvadorlar hamda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarida ibratli ishlarni amalga oshirayotgan zamondoshlarimiz, ularning yutuq va ilg'or tajribalari haqidagi materiallar;
3. Olim va mutaxassislarining tahliliy hamda amaliy tavsiya maslahatlari;
4. Qishloq xo'jaligi fanida erishilayotgan ilmiy natijalar, ixtirolar;
5. Dunyo qishloq xo'jaligidagi yangiliklar bilan muntazam tanishish, kasbiy mahorat hamda malakani oshirib borish.

Jurnalda chop etilgan har bir maqola, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha izlanuvchi turli toifadagi kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otadi. Jurnallar Axborot-resurs markazining barcha asosiy bo'lim-larida joylashtirilgan. Shu jumladan Axborot - resurs markazining elektron ma'lumotlar bazasida "AGRO ILM" agrar-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnali yangi (maxsus) sonining to'liq matnli elektron ko'rinishi ham mavjud.



Axborot-resurs markazi direktori v.b. M. X. Axmedova